



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№12



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2025



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 2025-yil, dekabr.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Abdulkarimova Dinara Rustamxanovna

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilkhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridakhon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Abdulkarimova Dinara Rustamkhanovna

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

RAQAMLI TRANSFORMATSIYA DAVRIDA TIJORAT BANKLARI LIKVIDLILIK XAVFINI BOSHQARISHI.....	44
Baxromov Nodirjon Muxammadamin o'g'li	
TURIZM XIZMATLAR BOZORI ISTE'MOLCHILARINI SEGMENTLASH USULI ASOSIDA DIVERSIFIKATSIYA KONSEPSIYASINI ISHLAB CHIQISH.....	48
Maxmudova Aziza Pirmamatovna	
"INNOVATSION AGROTEKNOLOGIYALAR VA "YASHIL IQTISODIYOT" TAMOIYILLARI ASOSIDA G'ALLA YETISHTIRISH BARQARORLIGINI BAHOLASH.....	53
Turayeva Gulizahro	
АНАЛИЗ ЦЕНОБРАЗОВАНИЯ НА ЗЕРНОВЫЕ ПРОДУКТЫ ПО ДАННЫМ МАРКЕТИНГОВЫМ ИСЛЕДОВАНИЯМ (НА ПРИМЕРЕ НАМАНГАНСКОЙ ОБЛАСТИ).....	57
Баҳриддинов Жаҳонгирбек Равшанжон ўғли	
KICHIK BIZNES RIVOJINI TA'MINLASHDA BOZOR INFRATUZILMALARINING AHAMIYATI.....	62
G'aniyev Botir Baxtiyorovich, Zakirova Gulnora Mirzaliyevna	
KICHIK SANOAT ZONALARI FAOLIYATINI SAMARALI BOSHQARISH METODOLOGIYASI VA YO'LLARI.....	67
Shodmonqulov Kamoliddin Murodillaevich	
INNOVASION FAOLIYAT XARAJATLARINING BUXGALTERIYA HISOB VA AUDITINI TAKOMILLASHTIRISH.....	73
Mustafoev Akbar Mustafo o'g'li	
MAHSULOT DIVERSIFIKATSIYASI VA LOGISTIKA XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISH ASOSIDA EKSPORT POTENSIALINI OSHIRISH YO'LLARI.....	78
Maxkamov Ibrayim, Jo'raboyeva Shohida Kamoliddin qizi	
REKLAMA SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA RAQAMLI MARKETING STRATEGIYALARI ROLI.....	83
Abduxalilova Laylo To'xtasinovna, Raxmonqulova Shahrizoda	
SIRKULAR IQTISODIYOTDA YOPIQ SIKL NAZARIYASINING ROLI.....	87
Sodikov Zokir Rustamovich	
YASHIL TEKNOLOGIYALARNI JORIY ETISHDA MOLIYAVIY RAG'BATLAR VA ULARNING NATIJALARI.....	92
Axmadjonova Gulmira Xabibulla qizi	
MAMLAKAT IQTISODIYOTI RIVOJLANISHIDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNING ROLI.....	97
G'aniyev Baydulla Toshmurodovich	
АНАЛИЗ ПОДХОДОВ ЦЕНТРАЛЬНЫХ БАНКОВ К РЕГУЛИРОВАНИЮ ИННОВАЦИОННЫХ БАНКОВСКИХ ПРОДУКТОВ: СРАВНЕНИЕ УЗБЕКИСТАНА И МЕЖДУНАРОДНОЙ ПРАКТИКИ.....	101
Даулетиярова Шахло	
СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ И ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ РЫНКА ЦЕННЫХ БУМАГ УЗБЕКИСТАНА.....	109
Кадилова Хадича Тураевна	
XORIY MAMLAKATLARINING IQTISODIYOTNI UGLERODSIZLASHTIRISH STRATEGIYALARI: O'ZBEKISTON UCHUN TAKLIFLAR.....	115
D.X. Pulatov, F.E.Shamsiyev	
O'ZBEKISTONDA ISLOM MOLIYASI: MUAMMOLAR VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI.....	125
Sattorov Ixtiyor Ochilovich, Karimov Shohruh Yo'ldoshali o'g'li	
HISOB SIYOSATI TARKIBIY TUZILISHI MASALALARI.....	133
Botirova Raximaxon Abdujabbarovna	
QURILISHDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNING MOLIYAVIY TAHLILI.....	136
Musayeva Shoirazimovna	



KICHIK SANOAT ZONALARINI RIVOJLANTIRISH ORQALI AHOLI TURMUSH FAROVONLIGINI OSHIRISH.....	144
Axmedov Oybek Turgunpulatovich	
O'ZBEKISTON SUG'URTA BOZORI PORTFELI TAHLILI.....	149
Madraximov Ilxom Kamilovich	
FOYDA SOLIG'INING O'ZIGA XOS MUAMMOLI JIHATLARI.....	154
Zaripov Xusan Baxodirovich	
AGRAR SEKTORNI INNOVATSION MODERNIZATSIYA QILISHDA INVESTITSIYA OQIMLARINI BOSHQARISH MODELLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	159
Xamrayev Quvvat Iskandarovich	
OLIY TA'LIM XIZMATLARI BOZORIDA MARKETING TADQIQODLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	163
Jalilov Jamshid G'anijonovich, Safarov Zavqiddin Zokir o'g'li	
MINTAQA SANOAT TARMOG'I RIVOJLANISHINING IQTISODIY-STATISTIK TAHLILI.....	168
Xayitboev Abror Quvondiqovich	
РОЛЬ СМЕШАННОГО ФИНАНСИРОВАНИЯ (BLENDED FINANCE) В ПОВЫШЕНИИ ИНВЕСТИЦИОННОЙ ПРИВЛЕКАТЕЛЬНОСТИ КОММУНАЛЬНЫХ УСЛУГ: УРОКИ РАЗВИВАЮЩИХСЯ СТРАН.....	174
Гулмаматова Дурдона Шерали кизи	
KORXONALARDA STRATEGIK BOSHQARUV.....	180
Musayeva Dilnoza Dilshatovna	
BANK TIZIMIDA MARKETING AHAMIYATI VA BANK MARKETINGI.....	184
Usubjonov Zaxriddin Vasliddin o'g'li	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN XORJIY KREDIT MABLAG'LARINI JALB KILISH HUQUQIY JIHATLARI.....	189
Qulliyev Anvar Zayniddinovich	
TIJORAT BANKLARINI TRANSFORMATSIYALASH SHAROITIDA CHAKANA XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI.....	194
Alimov Umid O'ktambayevich	
MAHSULOTLARNING RAQAMLI PASPORTI TIZIMINI JORIY ETISH OMILLARI VA TO'SIQLARI.....	200
Avloqulova Sadoqat Sobirjon qizi	
KORXONALARDA FOYDA VA ZARARLARNI TAHLIL QILISHDA INNOVATSION METODLAR AHAMIYATI.....	207
Ernazarov Ortiq Eshnazarovich, Farog'at Xo'jabekova	
ВЛИЯНИЕ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА НА ЭКОНОМИЧЕСКОЕ БЛАГОСОСТОЯНИЕ, А ТАКЖЕ НОВЫЕ МЕХАНИЗМЫ ПОВЫШЕНИЯ ДОХОДОВ НАСЕЛЕНИЯ.....	212
Останов Эгамберди	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA VA INNOVASION TEXNOLOGIYALARNI INTEGRATSIYALASH: MOHIYATI VA RIVOJLANISH IMKONIYATLARI.....	218
Xakimova Xulkar Xamidovna	
QORAQALPOG'ISTON VA XORAZM OZIQ-OVQAT SANOATINING IQTISODIY-STATISTIK TAHLILI HAMDA UNI YANADA RIVOJLANTIRISH YO'LLARI.....	224
Tleuov Niyetulla Raxmanovich	
OILAVIY KORXONALARNING IQTISODIY TIZIMDAGI O'RNI.....	230
Shadiyeva Gulnora Mardiyevna, Rustamova Zarina Rustamovna	
SUN'IY INTELLEKT ASOSIDA O'ZBEKISTON OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA MARKETING FAOLIYATINI MODELLASHTIRISH VA BOSHQARISH MEXANIZMLARI.....	234
Sadikov Shoxrux Shuxratovich	
XIZMAT KO'RSATISH SOHASI KORXONALARINING RAQOBATBARDOSHLIKNI OSHIRISHDA RAQAMLI XIZMATLARNING AHAMIYATI.....	238
Asenbaeva Aydaygul Edenbaevna	
BARQARORLIK VA YASHIL MENEJMENT: ILMIY-NAZARIY YONDASHUVLAR VA AMALIY AHAMIYATI.....	242
Djalilova Dilbar Abdikarim qizi	



HUDUDLARNING IQTISODIY SALOHİYATINI INNAVATSION-INVESTITSION BOSHQARISH STRATEGIYASI VA MEXANIZMI (XORAZM VILOYATI MISOLIDA)	247
Maqsudova Malohatxon Maqsudovna, Yaxshimuratov Maqsadbek Narimon o'g'li	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT BYUDJETINI 2026-YILGI SOLIQ SIYOSATINING TAHLILI VA XALQARO SOLISHTIRMA YONDASHUVI	251
Abdullayev Zafarbek Safibullayevich	
O'ZBEKISTON MINTAQALARIDA AYOLLAR TADBIRKORLIGINI RIVOJLANTIRISH OMILLARI	256
Mamataliyeva Dilnoza Raxmonovna	
TRANSFORMATSIYALASHUV SHAROITIDA INVESTITSİYALAR SHAKLLANISHI VA ULARNI SAMARALI BOSHQARISH YO'NALISHLARI	259
To'rayev Jasurali To'rayevich	
O'ZBEKISTONDA SAVDO TASHKILOTLARINING FAOLIYATI VA RIVOJLANISH HOLATI	264
B. Sulaymonov	
NAMANGAN VILOYATIDA "YASHIL IQTISODIYOT" MODELIGA O'TISH JARAYONIDA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING IQTISODIY FAOLLIGI	270
Xonto'rayev Obbosxon Kamolxon o'g'li	
O'ZBEKISTONDA "YASHIL" IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI	274
Xoshimov Pazliddin Zuxurovich	
KICHIK BIZNES ORQALI ISH O'RINLARINI YARATISH STRATEGIYALARI: NAMANGAN VILOYATI MISOLIDA	278
Ergasheva Nigora Abdigapparovna	
MAMLAKATIMIZDA QO'SHILGAN QIYMAT SOLIG'INING IJTIMOIIY-IQTISODIY AHAMIYATI	283
Quryozov Sardorbek Sharifboevich	
РАЗРАБОТКА И ПРИОРИТИЗАЦИЯ КЛЮЧЕВЫХ ИНДИКАТОРОВ ЭФФЕКТИВНОСТИ ДЛЯ ОБЩЕНАЦИОНАЛЬНОЙ ПАНЕЛИ МОНИТОРИНГА ДЕЯТЕЛЬНОСТИ БОЛЬНИЦ: ЭКСПЕРТНАЯ ОЦЕНКА СО СТОРОНЫ РУКОВОДИТЕЛЕЙ МЕДУЧРЕЖДЕНИЙ	290
Шухратов Мамуржон Шухрат угли	
MAHALLIY DAVLAT HOKIMIYAT ORGANLARINI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA BOSHQARISHGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR	297
Nurmurodov Zafarjon Nurmurod o'g'li	
BANK TIZIMINING BARQAROR MOLIVAVIY RIVOJLANISHINI TA'MINLASH VOSITALARI	303
Sadikov Iskandar Gayratovich	
ЗЕЛЕНОЕ ФИНАНСИРОВАНИЕ В ЗЕЛЕННОЙ ЭКОНОМИКЕ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА	308
Халиков С. Х.	
HUDUDIY IQTISODIY RIVOJLANISHDA KICHIK BIZNESNI ROLI VA SAMARADORLIGINI OSHIRISH CHORALARI	313
Ergashev Jamshid Jamoliddinovich	
ИСТОРИЧЕСКИЙ ПРОЦЕСС СТАНОВЛЕНИЯ ФАРМАЦЕВТИЧЕСКОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ	317
Мажидова Фарангиз Фуркатзода	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDAGI TADBIRKORLIK SUBYEKTLARIDA ISHLAB CHIQRISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH	321
Isakov Oybek Jamoliddinovich	
NORASMIY KOOPERATSIYA MUNOSABATLARINING FERMER XO'JALIKLARI YETISHTIRGAN MAHSULOT MIQDORIGA TA'SIRINI BAHOLASH	325
Ismoilov Azamat	
O'ZBEKISTON TIJORAT BANKLARIDA FOIZ RISKINI BOSHQARISH AMALIYOTI	332
Seitnazarov Daniyar Baxadirovich	
RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA SUT VA SUT MAHSULOTLARINI QAYTA ISHLOVCHI KORXONALAR FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH	341
Normuradov Nurbek Sunatilloevich	
"AYOL RAHBARLAR: RAHBARLIK SALOHİYATI VA ISH JOYIDA TENGLIK" FRANSIYA DAVLATI TAJRIBASI ASOSIDA	346
Abduraxmonova Feruzabonu	



QISHLOQ XO'JALIGIDAGI KLASSTERLARNING MOLIYAVIY BARQARORLIGINI EKONOMETRIK MODELLASHTIRISH.....	352
Dildora Yuldasheva	
TIJORAT BANKLARINING DEPOZIT BAZASINING YETARLILIGINI TA'MINLASH YO'LLARI	359
I.J. Isakov	
OLIY TA'LIM SIFATINI OSHIRISH VA IQTISODIY DIAGNOSTIKA O'TKAZISHNING XORIJ TAJRIBASI	363
Xo'jaxonov Ma'rufxon Xamidxonovich, Axmedov Oybek Turg'unpulatovich	
INKLYUZIV TA'LIMNI MOLIYAVIY QO'LLAB-QUVVATLASHDAGI MUAMMOLAR VA ULARNI YECHISH YO'LLARI.....	369
Egamberdiyeva Dilorom Botir qizi, Pulatova Moxira Baxtiyorovna	
"KREATIV IQTISODIYOT" HAMDA "TURIZM" TUSHUNCHALARINING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI	374
Abdurasulov Shovqiddin Erkin o'g'li	
THE STRATEGIC ROLE OF THE INDUSTRIAL SECTOR IN THE NATIONAL ECONOMY AND DEVELOPMENT FACTORS.....	380
Rakhimov Bakhromjon Ibroximovich	
INVESTITSIYALARNI MOLIYALASHTIRISH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISHNING ASOSIY YO'NALISHLARI.....	386
Ismailov Dilshod Anvarjonovich	
GLOBAL INCOME INEQUALITY IN 2024: CAUSES, PATTERNS, AND CONSEQUENCES.....	393
Ilxomjonov Jaxongir Alisher o'g'li	
ТОРГОВЫЕ ОТНОШЕНИЯ В СВОБОДНО ЭКОНОМИЧЕСКИХ ЗОНАХ: ПРОБЛЕМЫ И РЕШЕНИЯ	401
Шарифходжаев Шавкат Окилович, Ачилова Ширин Шавкат кизи	
O'ZBEKISTON KON-METALLURGIYA SANOATI: RIVOJLANISH TENDENSIYALARI VA HOZIRGI HOLATI	407
Ergashov Botirjon Ergashovich	
PENSIYA JAMG'ARMASIDA DAVLAT BUDJETI TRANSFERTLARI ULUSHI HAMDA UNING XORIJ TAJRIBASI	415
Sherjonov Doniyor Saparbayevich	
O'ZBEKISTON SANOAT KORXONALARINI QIMMATLI QOG'OZLAR BOZORIDAN FOYDALANIB MOLIYALASHTIRISHNING HOZIRGI HOLATI VA MUAMMOLARI.....	419
Igitov Jurabek Kuzibekovich	
QO'SHILGAN QIYMAT SOLIG'I BO'YICHA FIRIBGARLIKLAR: MEXANIZMLARI, SABABLARI VA ULARNI OLDINI OLISH YO'LLARI.....	425
Eshkarayev Bobir Chariyevich	
TOG' VA TOG'OLDI HUDUDLARIDA QISHLOQ XO'JALIGINI DIVERSIFIKATSIYA QILISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI VA IQTISODIY SAMARADORLIGI.....	431
Abdulxayeva Gulshan Maxmudovna	
TURIZM SOHASINING IJTIMOIIY-IQTISODIY MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI (SAMARQAND VILOYATI MISOLIDA).....	435
Xalimov Shaxboz Xalimovich	



TURIZM SOHASINING IJTIMOIY-IQTISODIY MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO‘LLARI (SAMARQAND VILOYATI MISOLIDA)



Xalimov Shaxboz Xalimovich

i.f.f.d. dotsent v.b.

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti
e-mail: xalimovshaxboz8545@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada Samarqand viloyati misolida turizm sohasining ijtimoiy-iqtisodiy mexanizmlari, ularning tuzilishi va rivojlanish jarayoniga ta'sir etuvchi omillar kompleks yondashuv asosida tahlil qilingan. Tadqiqotda turizm infratuzilmasi, investitsion faollik, xizmatlar sifati, boshqaruv tizimi va davlat-xususiy sheriklikning funksional samaradorligi o'rganiladi. O'zbekistonning 2019–2025-yillarga mo'ljallangan turizmni rivojlantirish konsepsiyasi doirasidagi maqsadli ko'rsatkichlar asosida sohaning istiqbollari baholanadi va ijtimoiy hamda iqtisodiy samaradorlikni oshirish mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha yo'nalishlar ishlab chiqiladi.

Kalit so'zlar: Turizm, xizmatlar ko'rsatish tizimi, ijtimoiy-iqtisodiy mexanizm, investitsion jarayonlar, raqamli transformatsiya, xizmatlar sifati, turizm infratuzilmasi, bandlik, hududiy raqobatbardoshlik, Samarqand turizm tizimi, modernizatsiya jarayonlari.

Abstract. This article provides a comprehensive analysis of the socio-economic mechanisms of the tourism sector in the Samarkand region, examining their structure and the factors influencing development processes. The study explores tourism infrastructure, investment activity, service quality, the management system, and the functional effectiveness of public-private partnership. Based on the target indicators outlined in Uzbekistan's Tourism Development Concept for 2019–2025, the prospects of the sector are assessed, and directions for improving mechanisms aimed at enhancing social and economic efficiency are proposed.

Key words: tourism, service delivery system, socio-economic mechanism, investment processes, digital transformation, service quality, tourism infrastructure, employment, regional competitiveness, Samarkand tourism system, modernization processes.

Аннотация. В статье на примере Самаркандской области проведён комплексный анализ социально-экономических механизмов сферы туризма, их структуры и факторов, влияющих на процессы развития. В исследовании изучаются туристическая инфраструктура, инвестиционная активность, качество услуг, система управления и функциональная эффективность государственно-частного партнёрства. На основе целевых показателей Концепции развития туризма Республики Узбекистан на 2019–2025 годы оцениваются перспективы отрасли и разрабатываются направления по совершенствованию механизмов повышения социально-экономической эффективности.

Ключевые слова: туризм, система обслуживания, социально-экономический механизм, инвестиционные процессы, цифровая трансформация, качество услуг, туристическая инфраструктура, занятость, региональная конкурентоспособность, туристическая система Самарканда, процессы модернизации.



KIRISH

Hozirgi vaqtda turizm sanoati jahon miqyosida tez sur'atlarda rivojlanayotgan sohalardan biri bo'lib, yangiliklarni joriy etish nuqtai nazaridan istiqbolli hisoblanadi; biroq innovatsiyalarga yetarlicha e'tibor qaratilmayotgani ham kuzatiladi. Bu holat ayrim sayyohlik kompaniyalarining tizimli o'sishi bilan birga xizmatlar sifatining pastligiga ham olib kelmoqda. Hukumatning turizm faoliyatini moliyaviy kafolatlar orqali tartibga solish bo'yicha chora-tadbirlari mavjud bo'lsa-da, litsenziyalash va boshqa tartibga solish mexanizmlarining yetarlicha samarali emasligi kompaniyalarning sayyohlarga xizmat ko'rsatishdagi barqarorligiga ta'sir ko'rsatmoqda. Bu esa taqdim etilayotgan xizmatlar sifatini yetarlicha kafolatlamaydi.

Shu sababli turizm sanoatida ijtimoiy-iqtisodiy mexanizmini kuchaytirish, korxonalar darajasida innovatsiyalarni joriy etishni rag'batlantirish va turistik mahsulotni takomillashtirish zarur. Bundan tashqari, tur operatorlari sonini, soha tashkil etish darajasini baholab, aniq vazifalarga muvofiq ularning sonini optimallashtirish bo'yicha metodik choralar ishlab chiqish lozim.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Samarqand viloyatining turizm salohiyatidan samarali foydalanish va uni rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"[1] qarorida Samarqand viloyatining turizm salohiyatini yanada rivojlantirish, nufuzli xalqaro tadbirlarni o'tkazish va xorijiy mamlakatlardan ko'plab mehmonlarni qabul qilishga hududni tayyorlash, zamonaviy turizm infratuzilmasini jadal rivojlantirish va turistlar uchun yangi dam olish maskanlarini barpo etish, hududning iqtisodiy salohiyati va daromad bazasini kengaytirish, shuningdek, yangi ish o'rinlarini tashkil etish maqsad qilingan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Bugungi kunga kelib, turizm biznesi jadal rivojlanmoqda va tog'li hududlar raqobatda boshqa turistik hududlardan qolishmaydi. Turizm biznesini rivojlantirish uchun ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni samarali boshqarish zarurligi haqida K.Svitlana, K.Bogdan va boshqalar "Management of socio-economic development of tourism enterprises"[2] nomli maqolasi Sharqiy Yevropaning tog'li hududlarida turizm biznesining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga asosiy tahdidlarni aniqlash va baholashdan iborat. Turizm biznesi samaradorligini oshirish sharoitida tog'larning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini boshqarish bo'yicha tadqiqotlarning ahamiyati isbotlangan.

D.P.Jelena A.Ljiljana "Socio-economic Aspects of Tourism in the Modern Society"[3] nomli maqolasida "... Turistik bozorning o'ziga xosligi va zamonaviy turistik mahsulotlarning ko'plab iqtisodiy va noxo'jalik faoliyati bilan bog'liqligi turizmning ijtimoiy-iqtisodiy ta'sirining ko'pligini keltirib chiqaradi. Turizmning rivojlanishi boshqa bir qator faoliyat turlari uchun ham imkoniyatlar yaratadi, ya'ni turizm umumiy iqtisodiy taraqqiyotni oshirishda muhim omil hisoblanadi. Rivojlanmagan mamlakatlar va mintaqalarning umumiy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida turizm alohida ahamiyatga ega. Turizm ijobiy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga hissa qo'shishi mumkin, lekin ayni paytda turistik yo'nalishni noto'g'ri va nazoratsiz boshqarish salbiy ijtimoiy-madaniy, balki iqtisodiy oqibatlariga olib kelishi mumkin."[3] Olimlar turizm sohasiga turistik sayohat, turizmning turistik joylar soni, turistlar soni, umuman jamiyatga iqtisodiy va ijtimoiy-madaniy holati ta'sir qilishini isbotlashga harakat qilgan. Biroq C.C.Miralles, M..Broua va boshqalar "Assessing the socioeconomic impacts of tourism packages: a methodological proposition"[4] nomli maqolasida turizmning ta'siri faqat iqtisodiy omillar bilan cheklanib qolmaydi; u atrof-muhitga ham, aholiga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi, kabi fikrlarni ilgari surgan.

I.A.Shukurovning "Samarqand viloyati turizm sohasining barqaror iqtisodiy rivojlanishining aholi farovonligiga ta'sirini tahlil etish"[5] nomli maqolasida Samarqand viloyatida turizm sohasining barqaror iqtisodiy rivojlanishi hamda uning aholi farovonligiga ko'rsatadigan ta'siri kompleks yondashuv asosida tahlil qilingan. Turizm iqtisodiyotning yetakchi yo'nalishlaridan biri sifatida hududiy rivojlanish jarayonlarida muhim funksional o'rin egallab, mahalliy aholining daromadlari, bandlik ko'rsatkichlari va ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlik dinamikasiga sezilarli ta'sir ko'rsatishi yoritib berilgan.

D.A.Ergashevaning "Turizm sohasini rivojlantirishning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati va unda innovatsion faollikni oshirish xususiyatlari"[6] nomli maqolada turizm mamlakatning iqtisodiyoti va ijtimoiy hayotiga to'liq ta'sir qilishi tahlil qilingan. Olimning fikricha turizm sohasi, ish o'rinlari yaratish, transport tizimini rivojlantirish, madaniyatni o'zgartirish va mamlakatlararo aloqalar o'rtasida hamkorlikni rivojlantirish imkoniyatlarini beradi. Innovatsion faollik turizm sohasini rivojlantirishning kengayishiga olib keladi. Yangi texnologiyalar, marketing usullari, xizmatlar va turli turdagi turli sohalarda innovatsiyalar turizm sohasining rivojlanishida muhim ahamiyatga ega. Biroq, G'.Arifjonov "Turizm sohasini rivojlantirishda samaradorlikni oshirish mexanizmlarini takomillashtirish yo'llari"[7] nomli maqolada O'zbekistonda turizm sohasining samaradorligini oshirishda turistik klasterlarning ahamiyati va ularni rivojlantirishning zamonaviy mexanizmlari tahlil qilgan. Muallif turizm industriyasida raqobatbardoshlikni kuchaytirish, innovatsion yondashuvlarni joriy etish va turistik mahsulotlarning sifatini oshirish maqsadida klaster siyosatini qo'llash zaruratini asoslab beradi. Mavjud xalqaro tajribalar, xususan, M. Porter va boshqa olimlarning nazariy qarashlari hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari



asosida turizm klasterlari orqali iqtisodiy hududlarning raqobat ustunligini shakllantirish imkoniyatlari ko'rib chiqilgan. Turistik klasterlarning fan, biznes va davlat o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlovchi innovatsion tizim sifatidagi o'rni alohida ta'kidlanadi.

X.S.Muhitdinov I.A.Shukurov "Samarqand viloyati mintaqasi turizm salohiyatini rivojlantirishda tadqiqotchilar tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlar tahlili"[8] nomli tadqiqotda Samarqand viloyatida turizm sohasining rivojlanish bosqichlari, sohaga kiritilgan yangi yo'nalishlar va ularning istiqbollari haqida olib borilgan ilmiy tadqiqotlar tafsifi tahlil qilingan. Tahlil qilish natijasida mintaqaning turistik salohiyatini bashorat qilish uchun zarur bo'lgan ekonometrik modelni yaratib, modeldan foydalangan holda mintaqaning turizm sohasidagi barcha ko'rsatkichlarini bashorat qilish zarurligi ko'rsatib o'tilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot quyidagi metodologik asoslarda amalga oshirildi:

Ilmiy-nazariy tahlil — turizmning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati, mexanizmlari va rivojlanish omillari bo'yicha ilmiy manbalar, maqolalar va normativ-huquqiy hujjatlar o'rganildi,

Taqdim etilgan rasmiy statistik ma'lumotlar tahlili — 2019–2025-yillar uchun O'zbekiston turizmini rivojlantirish konsepsiyasi ko'rsatkichlari qiyosiy-statistik usulda baholandi.

Tizimli yondashuv — turizm ekotizimining tarkibiy qismlari o'zaro bog'liqlikda o'rganilib, ijtimoiy va iqtisodiy mexanizmlar integratsiyasi tahlil qilindi.

Mantiqiy umumlashtirish — mavjud ilmiy natijalar asosida turizm mexanizmlarini takomillashtirish yo'nalishlari shakllantirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekiston turizmi zamonaviy sharoitda milliy iqtisodiyotning strategik tarmoqlaridan biriga aylanib, mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish jarayonlarida muhim hisoblanadi. Negaki, turizm sohasi nafaqat iqtisodiy daromad manbai, balki hududlarning infratuzilmaviy rivojlanishi, xalqaro aloqalarning kengayishi, madaniy merosning asrab-avaylanishi va tashqi dunyoda yurtimizning ijobiy qiyofasini mustahkamlashga ham xizmat qilmoqda. O'zbekistonning betakror tarixiy-madaniy yodgorliklari, noyob arxitektura majmualari, tabiiy-landshaftlar xilma-xilligi, milliy urf-odatlar va mehmondo'stlik an'analari uni jahon turistik xaritasida alohida mavqega ega davlat sifatida ko'rsatadi.

So'nggi yillarda amalga oshirilayotgan islohotlar — turistik vizalarni soddalashtirish, xalqaro aviareyslarni kengaytirish, yangi mehmonxonalar qurilishi, temir yo'l va avtomobil yo'llarini rekonstruksiya qilish, shuningdek, turizmni raqamlashtirish jarayonlarining jadallashuvi natijasida mamlakatga tashrif buyurayotgan xorijiy sayyohlar oqimi barqaror o'smoqda. Davlat tomonidan qabul qilingan "2019–2025-yillarda O'zbekiston Respublikasida turizmni rivojlantirish kontsepsiyasi" ushbu sohani tizimli, maqsadli va bosqichma-bosqich rivojlantirishga yo'naltirilgan bo'lib, undagi indikatorlar turizm xizmatlari eksporti, ichki turizm hajmi, joylashtirish vositalari quvvati, transport-logistika ta'minoti va turoperatorlar sonining muntazam o'sishini ta'minlashga xizmat qiladi.

2019 — 2025-yillarda O'zbekiston Respublikasida turizm sohasini rivojlantirish konsepsiyasini amalga oshirishning maqsadli ko'rsatkichlari[9]

T/r	Ko'rsatkichlar nomi	2018-y.	2019-y.	2020-y.	2021-y.	2022-y.	2023-y.	2024-y.	2025-y.
1.	O'zbekistonga tashrif buyuradigan xorijiy turistlar soni (ming kishi)	5 346	6 041	7 010	8 410	10 010	10 600	11 250	11 810
2.	Turizm xizmatlari eksporti (mln AQSh dollari)	1 041	1 180	1 360	1 620	1 900	2 000	2 080	2 170
3.	Ichki turistlar soni (mingta tashrif)	15493	16 100	17 230	18 806	20 317	21 867	23 404	25 010
4.	Mehmonxonalar va shu kabi joylashtirish vositalari soni (dona)	914	1 100	1 620	2 200	2 600	2 800	2 900	3 050
5.	Joylashtirish vositalaridagi xonalar soni (ming)	20,2	24	35	47	55	59	62	64
6.	Joylashtirish vositalaridagi o'rinlar soni (ming)	41	49	72	95	110	122	124	128
7.	Turoperatorlar soni (nafar)	983	1 100	1 190	1 250	1 320	1 390	1 420	1450

Izoh: prognoz qilinayotgan ko'rsatkichlarga turizmni rivojlantirish bo'yicha davlat va hududiy dasturlarni amalga oshirish natijalaridan kelib chiqqan holda o'zgartirishlar kiritilishi mumkin



Jadvalda keltirilgan ma'lumotlar 2019–2025-yillarda O'zbekiston turizmi uchun belgilangan asosiy indikatorlarning rejalashtirilgan o'sish dinamikasini ko'rsatadi. Umumiy tendensiya sifatida barcha ko'rsatkichlarda barqaror, izchil va bosqichma-bosqich o'sish kuzatiladi. Bu esa davlat siyosatining turizm sohasini tizimli rivojlantirishga yo'naltirilganini tasdiqlaydi.

Birinchi ko'rsatkich — O'zbekistonga tashrif buyuradigan xorijiy turistlar sonining 2018-yildagi darajadan boshlab yildan-yilga ortib borishi prognoz qilinmoqda. Maqsadli ko'rsatkichlar sohaning jadal liberallasuvi, transport logistikasi kengayishi va turistik mahsulotlarning diversifikatsiyalanishi bilan izohlanadi. Xuddi shunday, turizm xizmatlari eksporti ham sezilarli bo'sag'a bilan oshib borishi kutilmoqda, bu esa xizmatlar eksportida turizmning ulushi tobora kattalashib borayotganini anglatadi.

Ichki turizm bo'yicha ham juda yuqori o'sish dinamikasi aks etgan. Aholi daromadlari o'sishi, ichki turistik infratuzilmalar yaxshilanishi va dam olish madaniyatining shakllanishi natijasida ichki sayohatlar sonining izchil ortishi tabiiy jarayon sifatida baholanadi. Mehmonxonalar va shu kabi joylashtirish vositalari sonining oshishi esa turizm industriyasining moddiy-texnik bazasi kengayayotganidan dalolat beradi. Xonalar soni va o'rinlar sig'imi yillar davomida barqaror ko'tarilib borishi sohaning real investitsiyaviy jozibadorligini ko'rsatadi.

Turoperatorlar sonining muntazam o'sishi xizmatlar bozorida raqobatni kuchaytiradi, taklif etilayotgan turpaketlar hajmini oshiradi va yangi turistik yo'nalishlarning shakllanishiga imkon yaratadi. Bu jarayon mamlakatda turizm xizmatlari ekotizimining barqaror rivojlanishiga zamin hozirlaydi.

Turizm nafaqat iqtisodiy o'sishni rag'batlantiradi, balki ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlash, madaniy almashinuv va hududiy obodonlashtirishga xizmat qiladi. Samarqand viloyati, tarixiy-va madaniy merosga boyligi, ziyorat joylari, eski shahar ansambllari bilan O'zbekistonning eng jozibali turistik mintaqalaridan biridir. Shu bois, Samarqandda turizm sohasining ijtimoiy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish muhim strategik vazifa hisoblanadi.

Turizm sohasi hududda yashovchi aholining farovonligiga, bandlik darajasiga, kichik biznes va infratuzilmaning rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Shu bilan birga, turistlarning ijtimoiy va iqtisodiy holatini tahlil qilib, ularning ehtiyojlari va ta'sirini aniqlash, va turizm mexanizmlarini optimallashtirish yo'llarini izlash lozim.

Samarqand viloyati turizm zonasining asosiy manzillaridan biri bo'lib, o'zining tarixiy madaniy merosi va diniy bag'rikengligi bilan ajralib turadi. "Samarqand viloyatida turizm-global xizmatlar bozorining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2025-yil sentabr holatiga xizmatlar sektori o'sishi +114,1foizni tashkil etgan, bu turizm va xizmatlarga talabning oshayotganini ko'rsatadi." [10]


Bundan tashqari, "viloyatda 2025-yilda mehmonxona va joylashtirish obyektlarining soni sezilarli darajada oshgan. Xususan, Samarqandda 194 ta joylashtirish vositasi (mehmonxonalar, xostellar, oilaviy mehmon uylari) faoliyati yo'lga qo'yilgan. Xususan, 2025-yilning 8 oyi davomida viloyatimizga 2,2 mln xorijiy, 4,3 mln mahalliy sayyohlar tashrif buyurib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 140 foizga o'sgan. Turizm xizmatlari eksporti esa 441,1 mln dollarga yetkazilgan. O'tgan davrda viloyatda 194 ta joylashtirish vositalari, jumladan, 13 ta mehmonxona, 37 ta xostel, 144 ta oilaviy mehmon uylari faoliyati yo'lga qo'yilib, joylashtirish vositalari soni 821 taga, o'rinlar soni esa 22 680 taga yetkazilgan. Shuningdek, joriy yilda 63 ta turkompaniyalar faoliyati yo'lga qo'yilib, ularning soni 451 ta taga yetgan." [11].

Samarqand viloyatida turizm — iqtisodiy va ijtimoiy barqarorlik manbasi hisoblanadi. negaki, turizm nafaqat daromad yaratadi, balki mahalliy aholi bandligini oshiradi, madaniy merosni asrab-avaylashga yordam beradi va hududning global jozibadorligini kuchaytiradi. Ammo, turizm salohiyatidan to'liq foydalanish uchun faqat turistlar oqimini oshirish yetarli emas. Barqaror infratuzilma, sifatli xizmatlar, ijtimoiy integratsiya, ekologik mas'uliyat, va investitsiyalarni strategik yo'naltirish zarur. Buning uchun Samarqandda turizmni yanada takomillashtirish va ijtimoiy-iqtisodiy foydasini maksimal darajaga yetkazishga oid mexanizmlar va takliflar ishlab chiqish kerak. Bizningcha Samarqandda turizmning ijtimoiy-iqtisodiy maxanizmi quyidagicha bo'lishi kerak (1-rasm).

Turizm mexanizmlari — bu sohaning barqaror rivojlanishini ta'minlovchi tashkiliy, iqtisodiy, institutsional, investitsiyaviy va innovatsion vositalar majmuasidir. Ular quyidagi asosiy funksiyalarni bajaradi:

- turistik xizmatlar bozorida samarali raqobatni shakllantirish;
- turizmdan iqtisodiy foyda olish jarayonlarini optimallashtirish;
- ijtimoiy infratuzilma bilan o'zaro integratsiyani kuchaytirish;
- mavjud resurslardan oqilona foydalanish;
- xizmatlar sifatini standartlashtirish va diversifikatsiya qilish.

Mazkur mexanizmlar tarmoqlararo muvozanatni, hududiy rivojlanishning barqarorligini va iqtisodiy manfaatdorlikning oshishini ta'minlaydi.

1-rasm. Samarqand turizmining ijtimoiy-iqtisodiy mexanizmi¹

Turizm sohasining ijtimoiy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish barqaror rivojlanish, yuqori samaradorlik va hududlar raqobatbardoshligini ta'minlovchi ustuvor yo'nalishdir. Bu mexanizmlar kompleks asosda, ilmiy-tizimli yondashuv orqali modernizatsiya qilinganda turizm ekotizimi yanada samarali ishlaydi va iqtisodiy o'sishning muhim faktoriga aylanadi.

Turizmning ijtimoiy samaradorligi — turizm faoliyati natijasida jamiyat uchun yuzaga keluvchi ijobiy ijtimoiy ta'sirlar qiymatining uning ijtimoiy xarajatlariga nisbatidir. Ya'ni, bu turizm natijasida jamiyatning hayot sifati yaxshilanishi darajasidir. U quyidagilar orqali namoyon bo'ladi:

- yangi ish o'rinlari yaratilishi;
- aholi bandligining oshishi;
- xizmat ko'rsatish madaniyati va infratuzilmani yaxshilanishi;
- ekologik, madaniy va tarixiy merosning saqlanishi;
- aholining turmush darajasiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi.

Turizmning ijtimoiy samaradorligi bizningcha 3 bosqichda baholashadi. Birinchi bosqichda nechta ish o'rni yaratildi, madaniy obyektlar tiklandi, aholiga qulayliklar yaratildi aniqlanadi, ikkinchi bosqichda natijalarni olish uchun sarflangan umumiy xarajatlar — infratuzilma, xizmat ko'rsatish va boshqalar hisoblanadi. Oxirgi bosqichda natijalar xarajatlardan ko'proqmi yoki yo'qmi solishtirib baholash. Agar natijalar ko'proq bo'lsa ijtimoiy samaradorlik yuqori, agar natijalar kam bo'lsa ijtimoiy samaradorlik past deb topiladi.

Turizmning iqtisodiy samaradorligi — bu turizm faoliyatidan olingan iqtisodiy foyda uning sarflaridan yuqori bo'lishi darajasidir. U quyidagi ko'rsatkichlarda aks etadi:

- turistlardan tushadigan daromadlar;
- mahalliy ishlab chiqaruvchilarning foyda olishi;

1 Muallif ishlanmasi



- soliq tushumlarining ko'payishi;
- hududiy iqtisodiyotda jonlanish;
- qo'shimcha xizmatlar (ovqatlanish, transport, savdo) daromadlarining oshishi.

U quyidagicha hisoblanadi: birinchidan, turizm natijasida olingan jami daromadlar hisoblanadi (mehmonxonalar, transport, xizmat ko'rsatish, savdo va boshqalar). Ikkinchidan, turizmni rivojlantirishga ketgan jami xarajatlar hisoblanadi (infratuzilma qurilishi, xizmatlar, reklama, boshqaruv xarajatlari va boshqalar). Uchinchi bosqichda ularning nisbatlari olinadi. Ya'ni:

$$\text{Turizmning iqtisodiy samaradorligi} = \frac{\text{turizm natijasida olingan jami daromadlar}}{\text{turizmni rivojlantirishga ketgan jami xarajatlar}}$$

Formulada koeffitsiyent qancha yuqori chiqsa, turizmning iqtisodiy samaradorligi shuncha yuqori ekanligini anglatadi.

Turizm sohasining ijtimoiy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish yo'llari

Quyida Samarqand viloyatida turizm sohasini rivojlantirish va uning ijtimoiy-iqtisodiy samarasini oshirish uchun bir nechta takliflar keltirilgan:

Birinchidan, yangi mehmonxonalar, xostellar va oilaviy mehmon uylarini qurish va Samarkand aeroporti va shahar ichidagi yo'llarni kengaytirish;

Ikkinchidan, turizm sohasida ishlovchi xodimlar (mehmonxona xodimlari, gidlar, transport haydovchilari, kichik biznes egalari) uchun kasbiy ta'lim va malaka oshirish dasturlarini tashkil etish;

Uchinchidan, ekologik yo'nalishlar, chiqindilarni kamaytirish, tabiiy hududlarda ekoturistik marshrutlar tashkil qilish, mahalliy jamoalarni jalb qilish, va tabiatni asrab-avaylash bo'yicha ta'lim dasturlari yaratish;

To'rtinchidan, Samarqandni xalqaro turizm forumlari, ko'rgazmalar, konferensiyalarda faol targ'ib qilish, universitetlar, madaniy tashkilotlar va turizm agentliklari o'rtasida hamkorlikni rivojlantirish;

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari turizm sohasining zamonaviy sharoitda O'zbekiston milliy iqtisodiyotida strategik ahamiyatga ega ekanini tasdiqlaydi. Turizmning ko'p funksiyali tabiatiga ko'ra, u nafaqat iqtisodiy daromad manbai, balki ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlovchi, hududiy rivojlanishni jadallashtiruvchi va xalqaro integratsiyani kengaytiruvchi muhim tizimli omildir. Samarqand viloyatida turizmning ijtimoiy-iqtisodiy mexanizmlari tahlili shuni ko'rsatadiki, infratuzilma modernizatsiyasi, xizmatlar sifatini oshirish, investitsion jozibadorlik, madaniy merosni asrash va inson kapitalini rivojlantirish sohani barqaror rivojlantirishning asosiy shartlari hisoblanadi.

2019–2025-yillarga mo'ljallangan maqsadli ko'rsatkichlar turizm oqimlari, xizmatlar eksporti, joylashtirish vositalari soni va turoperatorlar faoliyatidagi muntazam o'sishni aks ettiradi. Bu esa davlat siyosatining sohani kompleks qo'llab-quvvatlash orqali turizm industriyasining iqtisodiy salohiyatini sezilarli darajada kengaytirayotganini ko'rsatadi. Turizmning ijtimoiy samaradorligi bandlikning oshishi, madaniy integratsiya, infratuzilma yaxshilanishi va aholining hayot sifatining ko'tarilishi orqali namoyon bo'lsa, iqtisodiy samaradorlik turistlarning xarajatlari orqali iqtisodiyotning bir qator tarmoqlarida qo'shimcha qiymat yaratish jarayonida mujassam bo'ladi.

Samarqand misolida o'tkazilgan tahlil, turizmni rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish uchun kompleks yondashuv zarurligini ko'rsatadi. Bu jarayon investitsion rag'batlarni kengaytirish, xizmatlar bozorini diversifikatsiya qilish, raqamli texnologiyalarni joriy etish, turistik klasterlar faoliyatini samaralashtirish, ekologik barqarorlikni ta'minlash hamda mahalliy aholini turizm jarayonlariga faol jalb etishni talab qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Samarqand viloyatining turizm salohiyatidan samarali foydalanish va uni rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" qarori, 30.09.2019 yildagi 828-son <https://lex.uz/docs/-4532217>
2. Svitlana Kryshanovych, Bogdan Kindzer, Marta Goryn, Alla Kravchenko, Svitlana Frunza Management of socio-economic development of tourism enterprises" <https://www.ceeol.com/search/article-detail?id=951205>
3. Jelena Đ. Premović, Ljiljana Arsić "Socio-economic Aspects of Tourism in the Modern Society" <https://www.ceeol.com/search/article-detail?id=910703>
4. Cristina Casals Miralles, Mercè Boy Roura, Sergio Ponsá Salas, Laia Llenas Argelaguet Joan Colón Jordà "Assessing the socio economic impacts of tourism packages: a methodological proposition" <file:///C:/Users/User/Downloads/s11367-024-02284-z.pdf>
5. Shukurov Ikrom Abdurashitovich "Samarqand viloyati turizm sohasining barqaror iqtisodiy rivojlanishining aholi farovonligiga ta'sirini tahlil etish"



6. Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar. VIII Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami. 1 jild, 8-son (sentyabr, 2025-yil). [samarqand viloyati turizm sohasining barqaror iqtisodiy.pdf](#)
7. Ergasheva Durdonaxon Aziz Qizi "Turizm sohasini rivojlantirishning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati va unda innovatsion faollikni oshirish xususiyatlari" nomli maqolasida «Экономика и бизнес» 2024 <https://cyberleninka.ru/article/n/turizm-sohasini-rivojlantirishning-ijtimoiy-iqtisodiy-mohiyati-va-unda-innovatsion-faollikni-oshirish-xususiyatlari>
8. G'ulomjon Arifjonov "Turizm sohasini rivojlantirishda samaradorlikni oshirish mexanizmlarini takomillashtirish yo'llari" international scientific and practical conference Sustainable economic growth: integrating green economy principles and practices April 12, 2025 https://ilmiyanjumanlar.uz/uploads/conferences/0096/96_i_20250411_135417_27.pdf
9. Muhitdinov X.S. Shukurov I.A. "Samarqand viloyati mintaqasi turizm salohiyatini rivojlantirishda tadqiqotchilar tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlar tahlili" <https://cyberleninka.ru/article/n/samarqand-viloyati-mintaqasi-turizm-salohiyatini-rivojlantirishda-tadqiqotchilar-tomonidan-olib-borilgan-ilmiy-izlanishlar-tahlili>
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida turizm sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" Farmoni, 13.08.2019 yildagi PF-5781-son <https://lex.uz/docs/-4474527?ONDATE=27.04.2024#-4475044>
11. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi Samarqand viloyati Statistika boshqarmasi <https://www.samstat.uz>
12. Samarqand viloyati hokimligi rasmiy veb-sayti <https://samarkand.uz/>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
